O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALARVAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"

O'quv ishlari bo'yicha prorektor
A.A.Elmurodov
2025 yil "23" 08

O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI

FANI BO'YICHA

SILLABUS

Kunduzgi ta'lim shakli uchun

Bilim sohasi: 800000 - Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya

Ta'lim sohasi: 840000 - Veterinariya

Ta'lim yo'nalishi: 60840300 - Veterinariya sanitariya ekspertizasi

Samarqand –2025

Modul / FAN SILLABUSI
Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi fakulteti
60840300 - Veterinariya sanitariya ekspertizasi ta'lim yo'nalishi

Fan nomi:	*O'zbekistonning eng yangi tarixi*
Fan turi:	Majburiy
Fan kodi:	O'EYT1104
Yil:	2025-2026
Semestr:	2
Ta'lim shakli:	Kunduzgi
Mashg'ulotlar shakli va semestrga ajratilgan soatlar:	120
Ma'ruza	30
Amaliy mashg'ulotlar	–
Laboratoriya mashg'ulotlari	–
Seminar	30
Mustaqil ta'lim	60
Kredit miqdori:	4
Baholash shakli:	Imtihon
Fan tili:	O'zbek

Fan maqsadi (FM)	
FM1	O'zbekiston jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan hududlardan biri, o'zbek xalqi boy tarixiy o'tmish va bebaho ma'naviy merosga egaligi, mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida yuz bergan muhim o'zgarishlar, tub islohotlarning mazmun-mohiyatini ko'rsatib berish va jamiyat hayotida, ijtimoiy turmush tarzida ma'naviyatning asosi bo'lmish tarix fanining o'rnini talaba yoshlarga o'zlikni anglash vositasi sifatida, shuningdek, O'zbekiston rivojlanishining yangi bosqichida barkamol avlodni tarbiyalashda, shaxs, fuqaro, inson, jamiyat va davlat tamoyili mohiyatini yetkazib berishdan iborat.

Fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar	
1.	O'zbekiston tarixi fani yuzasidan umumiy tasavvur va ma'lum tarixiy bilimlar bazasiga ega bo'lishlari kerak.
2.	Mamlakat tarixida kechgan asosiy tarixiy voqeliklar, jarayonlar, tarixiy shaxslar faoliyati to'g'risida tegishli tasavvurga ega bo'lishlari lozim.

Ta'lim natijalari (TN)	
	Bilimlar jihatidan:
TN1	Fanning tushuncha kategoriyalari tizimi va metodologiyasini bilish, bilimlarning asosiy yo'nalishlarini siyosiy tahlil qilish.
TN2	Jamiyatning turli sohalarida bo'lib o'tayotgan jarayonlar va o'zgarishlarni tahlil qila olish va ulardan xulosalar chiqarish.
TN3	Mustamlakachilik va sovet mustabid davrida O'zbekistonning turli sohalari rivojlanishiga qarshi siyosat va ularning ayanchli oqibatlari.
TN4	Turli davrlarda ozodlik yo'lida amalga oshirilgan kurashlar hamda vatanparvarlik jasoratlari.
	Ko'nikmalar jihatidan:
TN5	Tarixiy voqea va hodisalar natijalarini qiyosiy taqqoslash orqali ulardan xulosalar chiqarish.
TN6	Jamiyat taraqqiyotida o'zining tutgan o'rnini anglay bilish, his etishvafaolishtiroketish.
TN7	tarixiy voqealar va hodisalarga nisbatan o'z nuqtai nazariga, mustaqil fikriga va munosabat bildira olish malakalariga ega bo'lishi kerak.

Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)	
M1	Kirish."O'zbekistonning eng yangi tarixi" o'quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari
M2	O'zbekistonda mustaqillik g'oyalarining tarixiy asoslari
M3	O'zbekistonda mustaqillik g'oyalarining tarixiy asoslari
M4	Mustaqillikka erishish arafasida O'zbekistondagi ijtimoiy siyosiy jarayonlar
M5	Mustaqil O'zbekiston Respublikasi tashkil topishining tarixiy ahamiyati. O'zbekistonning o'ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo'li
M6	Mustaqil O'zbekiston Respublikasi tashkil topishining tarixiy ahamiyati. O'zbekistonning o'ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo'li
M7	O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar
M8	Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkchilikning shakllanishi. O'zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi
M9	O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy sohadagi islohotlar
M10	Mustaqillik yillarida O'zbekistondagi ma'naviy va madaniy taraqqiyot
M11	O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar
M12	O'zbekiston va jahon hamjamiyati
M13	Yangi O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlarning xalqaro reyting va indekslarda aks etishi

M14	Yangi O'zbekistonda Prezident Sh.M.Mirziyoyev rahbarligi va tashabbusi ostida amalga oshirilayotgan islohotlar
M15	Yangi O'zbekistonda xalqchil va insonparvar davlat qurishning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati
Mashg'ulotlar shakli: seminar (S)	
S1	"O'zbekistonning eng yangi tarixi" o'quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari
S2	O'zbekistonda mustaqillik g'oyalarining tarixiy asoslari
S3	O'zbekistonda mustaqillik g'oyalarining tarixiy asoslari
S4	Mustaqillikka erishish arafasida O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar
S5	Mustaqil O'zbekiston Respublikasi tashkil topishining tarixiy ahamiyati. O'zbekistonning o'ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo'li
S6	Mustaqil O'zbekiston Respublikasi tashkil topishining tarixiy ahamiyati. O'zbekistonning o'ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo'li
S7	O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar
S8	Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkchilikning shakllanishi. O'zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi
S9	O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy sohadagi o'zgarishlar
S10	Mustaqillik yillarida O'zbekistondagi ma'naviy va madaniy taraqqiyot
S11	O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar
S12	O'zbekiston va jahon hamjamiyati
S13	Yangi O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlarning xalqaro reyting va indekslarda aks etishi
S14	Yangi O'zbekistonda Prezident Sh.M.Mirziyoyev rahbarligi va tashabbusi ostida amalga oshirilayotgan islohotlar
S15	Yangi O'zbekistonda xalqchil va insonparvar davlat qurishning ijtimoiy siyosiy ahamiyati

Mustaqil ta'lim (MT)		
1.	IX-XII asrlarda mamlakatimiz hududida ro'y bergan madaniy uyg'onish (Renessans).Buyuk allomalarning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi	4
2.	Jaloliddin Manguberdi - Vatan himoyachisi	4
3.	Amir-Temur buyuk davlat arbobi	4
4.	Mirzo Ulug'bek - davlat arbobi va buyuk olim	4
5.	Jadid ma'rifatparvarlarining o'lka ijtimoiy-ma'naviy hayotida tutgan o'rni (Munavvar Qori, Fitrat, Behbudiy, Avloniy va boshq.)	4
6.	"Qayta qurish" yillarida O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat	4

Mualliflar:	**S.S.Sa'dullayev** – SamDVMCHBU, "Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport" kafedrasi o'qituvchisi. **D.B.Sayfudinova** – SamDVMCHBU, "Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport" kafedrasi o'qituvchisi.
E-mail:	sadullayevsanjar26@gmail.com
Tashkilot:	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport" kafedrasi
Taqrizchilar:	**R.E.Xoliqova** – I.Karimov nomidagi TDTU O'zbekiston tarixi kafedrasi mudiri, professor, tarix fanlari doktori **X.E.Yunusova** – O'ZMU "O'zbekiston tarixi" kafedrasi professori, tarix fanlari doktori

Mazkur Sillabus "Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport" kafedrasining 2025 yil 28 08 1 sonli yig'ilishi bayoni bilan ma'qullangan.

Mazkur Sillabus universitet o'quv-uslubiy Kengashning 2025 yil "28" 08 1 sonli yig'ilishi bayoni bilan tasdiqlangan.

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i	Sh.Qurbanov
Fakultet dekani	F.Qurbonov
Kafedra mudiri	N.Narziyeva
Tuzuvchilar	S.Sa'dullayev
	J.Sayfudinova

7.	O'zbekistonda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan o'zgarishlar mazmun va mohiyati	4
8.	Mustaqillik yillarida davlat boshqaruvi tizimida amalga oshirilgan islohotlar	4
9.	Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ma'naviy o'zgarishlar	4
10.	O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarining faoliyati	4
11.	Mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligi va sanoat sohasidagi o'zgarishlar	4
12.	Yangi O'zbekistonda inson haq-huquqlari va erkinliklari kafolatining yaratilishi	4
13.	Yangi O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlarning xalqaro reyting va indekslarda aks etishi	4
14.	O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari	4
15.	O'zbekistonning Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni	4
	Jami	**60**

	Rahbariy adabiyotlar
1.	Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T. 1. - Toshkent: O'zbekiston.. 2017.
2.	Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3.	Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson ma'nfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yiligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. - Toshkent: O'zbekiston. 2017.
4.	Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O'zbekiston. 2017.
5.	Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022.
6.	Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2023.
7.	Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2023.
8.	Sh.M. Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. - Toshkent: O'zbekiston, 2024.
	Asosiy adabiyotlar:
1.	R.H. Murtazayeva O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik.

	Darslik. - Toshkent: Mumtoz so‘z, 2019.
2.	R.H.Murtazayeva, A.A.Yermetov, A.A.Odilov va boshq. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. - Toshkent, 2024.
3.	A.S.Sagdullayev umumiy tahriri ositida. O‘zbekiston tarixi. 1-jild. Darslik. – Toshkent: NIF MSH. 2024.
4.	B.J.Eshov, A.A.Odilov. O‘zbekiston tarixi. 2-jild. Darslik. – Toshkent: NIF MSH. 2024.
5.	К.Д.Саипова. Новейшая история Узбекистана (учебное пособие). – Ташкент: NIF MSH, 2024.
Qo‘shimcha adabiyotlar	
1.	O‘zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). 2 tom. Mas’ul muharrirlar: R.Abdullaev, Q.Rajabov, M.Rahimov. Darslik.- Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
2.	O‘zbekiston tarixi. Mas’ul muharrir R.H.Murtazayeva. Darslik. – Toshkent, 2020.
3.	D.T.To‘xtaboyeva. O‘zbekistonning eng yangi tarixi: ma’naviy yangilanish, madaniy taraqqiyot va ijtimoiy o‘zgarishlar. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent, 2021.
4.	N.Oblamurodov. F.Tolipov. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. Darslik. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2022.
5.	A.A.Insopov. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini shakllanishi va rivojlanish tarixi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Universitet. 2023.
6.	O.Q.Alimardonov. O‘zbekistonning eng yangi tarixi: tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishlari (o‘quv qo‘llanma). - Toshkent, FAST SUPPORT AND RESULT, 2023.
7.	Т.И.Дорошенко. Новейшая история Узбекистана (учебное пособие). - Ташкент: Metodist nashriyoti, 2023
8.	Д.М.Иноятова. Новейшая история Узбекистана (учебное пособие для вечерних отделений). - Ташкент: Metodist nashriyoti, 2023.
Axborot manbalari	
1.	www.ziyonet.uz.
2.	www.edu.uz.
3.	www.google.uz.
4.	www.gov.uz.

Talabaning fan bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichini nazorat qilishda quyidagi mezonlar tavsiya etiladi:

a)5 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- Fanning mohiyati va mazmunini to‘liq yorita olsa;
- Fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va

chalkashliklarga yo‘l qo‘ymasa;
- Fan bo’yicha mavzu materiallarining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo’lsa;
- Fan doirasida mustaqil erkin fikrlash qobiliyatini namoyon eta olsa;
- Berilgan savollarga aniq va lo’nda javob bera olsa;
- Konspektga puxta tayyorlangan bo’lsa;
- Mustaqil topshiriqlarni to’liq va aniq bajargan bo’lsa;
- Fanga tegishli qonunlar va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarni to’liq o’zlashtirgan bo’lsa;
- Fanga tegishli mavzulardan biri bo’yicha ilmiy maqola chop ettirgan bo’lsa;
- Tarixiy jarayonlarni sharhlay bilsa;

b)4 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- fanning mohiyati va mazmunini tushungan, fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiy va mantiqiy chalkashliklarga yo’l qo’ymasa;
- fanning mazmunini amaliy ahamiyatini tushungan bo’lsa;
- fan bo’yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni o’quv dasturi doirisida bajarsa;
- fan bo’yicha berilgan savollarga to’g’ri javob bera olsa;
- fan bo’yicha konspektini puxta shakllantirgan bo’lsa;
- fan bo’yicha mustaqil topshiriqlarni to’liq bajargan bo’lsa;
- fanga tegishli qonunlar va boshqa me’yoriy hujjatlarni o’zlashtirgan bo’lsa.

d)3 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- fan haqida umumiy tushunchaga ega bo’lsa;
- fandagi mavzularni tor doirada yoritib, bayon qilishda ayrim chalkashliklarga yo’l qo’yilsa;
- bayon qilish ravon bo’lmasa;
- fan bo’yicha savollarga mujmal va chalkash javoblar olinsa;
- fan bo’yicha matn puxta shakllantirilmagan bo’lsa.

e)quyidagi hollarda talabaning bilim darajasi qoniqarsiz 2 baho bilan baholanishi mumkin:

- fan bo’yicha mashg’ulotlarga tayorgarlik ko’rilmagan bo’lsa;
- fan bo’yicha mashg’ulotlarga doir hech qanday tasavvurga ega bo’lmasa;
- fan bo’yicha matnlarni boshqalardan ko’chirib olganligi sezilib tursa;
- fan bo’yicha matnda jiddiy xato va chalkashliklarga yo’l qo’yilgan bo’lsa;
- fanga doir berilgan savollarga javob olinmasa;
- fanni bilmasa.

Fan o‘qituvchisi haqida ma’lumot